O‘zbekistonda bozor xizmatlarining asosiy ko‘rsatkichlari [1]

2026-yil yanvar-sentabr

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi
II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o‘zgarishi
III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari
IV. Xizmatlar sohasining statistik ko‘rsatkichlari bo‘yicha tushuntirishlar
V. Foydali havolalar


I. Xizmatlar sohasining asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 003,2** trln so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan real hisobda **16,7** %ga oshdi.

Ma’lumot uchun: *2025-yil yanvar-sentabr oylarida bozor xizmatlari hajmi **815,0** trln so‘mni tashkil etib, bu 2024-yilning mos davriga nisbatan **14,0** %ga oshgan. Mazkur press-relizda keltirilgan ma’lumotlar dastlabki hisoblanadi va qo‘shimcha ma’lumotlar kelib tushishiga qarab keyingi nashrlarda aniqlashtirilishi mumkin.*

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi va o‘sish sur’ati

2025–2026–yillar yanvar–sentabr oylari



1-rasm

II. Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi o‘zgarishi

Mazkur davrda bozor xizmatlarining umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **40,8** %ni (**409 417,5** mlrd so‘m) tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan real o‘sish sur’ati **118,3** %ga teng bo‘ldi. Umumrespublika ko‘rsatkichi hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan

[1] *2025–2026-yillarning yanvar–sentyabr oylariga oid statistik ma’lumotlar aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalarini inobatga olgan holda qayta baholangan.*

hajmlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli hududlar bo‘yicha jami hajmlar O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha yakuniy ko‘rsatkichga to‘liq mos kelmasligi mumkin.

Hududlar kesimida keyingi eng yuqori hajm Samarqand (**73 815,3** mlrd so‘m yoki jami bozor xizmatlari hajmining **7,4** %i), Toshkent (**68 342,2** mlrd so‘m yoki **6,8** %i), Farg‘ona (**66 029,3** mlrd so‘m yoki **6,6** %i) va Andijon viloyatlarida (**51 025,3** mlrd so‘m yoki **5,1** %i) kuzatildi. Sirdaryo viloyatida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **13 890,6** mlrd so‘mni yoki umumiy xizmatlar hajmining **1,4** %ini tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining hududlar kesimidagi asosiy ko‘rsatkichlari
2026-yil yanvar-sentabr

	Hajmi, mlrd so‘mda	Ulushi, %da	O‘sish sur’ati, %da
O‘zbekiston Respublikasi [2]	**1 003 197,6**	**100,0**	**116,7**
hududlar:			
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	30 507,7	3,0	114,9
Andijon viloyati	51 025,3	5,1	117,1
Buxoro viloyati	39 679,8	4,0	116,2
Jizzax viloyati	22 409,4	2,2	116,0
Qashqadaryo viloyati	47 251,2	4,7	116,6
Navoiy viloyati	23 470,4	2,3	116,9
Namangan viloyati	49 562,0	4,9	115,0
Samarqand viloyati	73 815,3	7,4	117,3
Surxondaryo viloyati	31 405,4	3,1	116,7
Sirdaryo viloyati	13 890,6	1,4	116,8
Toshkent viloyati	68 342,2	6,8	116,6
Farg‘ona viloyati	66 029,3	6,6	116,5
Xorazm viloyati	33 917,5	3,4	117,2
Toshkent shahri	409 417,5	40,8	118,3

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida Toshkent shahridan tashqari, ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining eng yuqori real o‘sish sur’ati Samarqand (**117,3** %), Xorazm (**117,2** %), Andijon (**117,1** %), Navoiy (**116,9** %), Sirdaryo (**116,8** %), Surxondaryo (**116,7** %), Qashqadaryo (**116,6** %), Toshkent (**116,6** %) hamda Farg‘ona (**116,5** %) viloyatlarida kuzatildi.

O‘zbekiston bo‘yicha 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **25 540,0** ming so‘mni, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida esa **21 122,7** ming so‘mni tashkil etdi. Real o‘sish sur’ati **114,7** %ga teng bo‘ldi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahrida qayd etildi – **125 959,1** ming so‘m. Bu ko‘rsatkich 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **23 887,4** ming so‘mga oshgan. Shuningdek, Navoiy (**19 718,1** ming so‘m), Buxoro (**18 765,6** ming


[2] *Hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda.*

so‘m) va Toshkent (**18 080,9** ming so‘m) viloyatlari ham nisbatan yuqori o‘rinlarda. Eng past ko‘rsatkich esa Surxondaryo viloyatida (**10 447,6** ming so‘m) qayd etildi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi va o‘sish sur’ati ko‘rsatkichlari
2026-yil yanvar-sentabr

	Hajmi, ming so‘mda	O‘sish sur’ati, %da
O‘zbekiston Respublikasi	**25 540,0**	**114,7**
hududlar:		
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	14 139,6	113,6
Andijon viloyati	14 364,4	115,0
Buxoro viloyati	18 765,6	114,5
Jizzax viloyati	14 607,5	113,7
Qashqadaryo viloyati	12 708,4	114,2
Navoiy viloyati	19 718,1	115,3
Namangan viloyati	15 639,6	112,9
Samarqand viloyati	16 653,9	115,1
Surxondaryo viloyati	10 447,6	114,2
Sirdaryo viloyati	14 474,0	115,0
Toshkent viloyati	18 080,9	114,5
Farg‘ona viloyati	15 483,1	114,4
Xorazm viloyati	15 769,7	115,3
Toshkent shahri	125 959,1	116,4

Hududlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan bozor xizmatlari hajmi
2026-yil yanvar-sentabr, ming so‘mda




2-rasm

Hududlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmining eng yuqori real o‘sish sur’ati Toshkent shahrida (**116,4 %**) qayd etildi. Shu bilan birga, ko‘rsatkichning yuqori

dinamikasi Xorazm (**115,3 %**), Navoiy (**115,3 %**), Samarqand (**115,1 %**), Andijon (**115,0 %**), Buxoro (**114,5 %**), Toshkent (**114,5 %**), Farg‘ona (**114,4 %**), Surxondaryo (**114,2 %**), Qashqadaryo (**114,2 %**), Jizzax (**113,7 %**) viloyatida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (**113,6 %**) va Namangan (**112,9 %**) viloyatida ham kuzatildi.

Hududlar kesimida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o‘sish sur’atlari,
2026-yil yanvar-sentabr, %da



3-rasm

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan bozor xizmatlari hajmi
Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o‘sish sur’ati

2026-yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **567 476,3** mlrd so‘mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **56,6** %ini tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan real o‘sish sur’ati **117,4** %ga teng bo‘ldi. Kichik tadbirkorlik subyektlari bo‘yicha baholash statistik hisobot ma’lumotlari, kuzatuv natijalari hamda Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan qo‘llaniladigan baholash tartib-taomillari asosida shakllantiriladi.

Xizmatlar hajmida kichik biznesning eng yuqori ulushlari Farg‘ona (**76,0** %), Qashqadaryo (**74,7** %), Namangan (**74,4** %), Andijon (**74,3** %), Surxondaryo (**73,7** %) va Toshkent (**72,9** %) viloyatlarida, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida (**72,5** %), Xorazm (**71,2** %) va Buxoro (**70,2** %) viloyatlarida kuzatildi. Bu mazkur hududlarda xizmatlar ko‘rsatish sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik ulushi nisbatan past (**42,9 %**) bo‘lishiga qaramay, ular tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi mamlakatda eng yirik bo‘ldi va **175 821,1** mlrd so‘mni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari ko‘rsatgan xizmatlar hajmi boshqa hududlarga qaraganda pastroq. Bu ko‘rsatkich 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida **9 148,7** mlrd so‘mga teng bo‘ldi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasi bo‘yicha kichik tadbirkorlik ko‘rsatkichlari
2026-yil yanvar-sentabr

	Hajmi, mlrd so‘mda	Jami hajmdagi ulushi, %da	O‘sish sur’ati, %da
O‘zbekiston Respublikasi	**567 476,3**	**56,6**	**117,4**
hududlar:			
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	22 111,8	72,5	113,0
Andijon viloyati	37 891,7	74,3	115,7
Buxoro viloyati	27 870,2	70,2	120,3
Jizzax viloyati	15 015,3	67,0	113,3
Qashqadaryo viloyati	35 299,3	74,7	116,0
Navoiy viloyati	13 333,3	56,8	113,9
Namangan viloyati	36 871,3	74,4	112,6
Samarqand viloyati	46 846,1	63,5	116,6
Surxondaryo viloyati	23 160,9	73,7	115,3
Sirdaryo viloyati	9 148,7	65,9	114,0
Toshkent viloyati	49 794,3	72,9	113,9
Farg‘ona viloyati	50 155,9	76,0	116,0
Xorazm viloyati	24 156,4	71,2	112,2
Toshkent shahri	175 821,1	42,9	121,3

III. Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o‘sishining asosiy omili savdo, moliya hamda transport xizmatlari hajmining ortishi bilan bog‘liq bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi PQ-78-son “Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qaroriga muvofiq, xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan maqsadli parametrlar doirasida xizmatlarning asosiy turlari monitoringi amalga oshiriladi.

2026-yilning yanvar-mart oylari ma’lumotlaridan boshlab, savdo xizmatlari hajmini hisoblash metodologiyasiga qayta sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar zaxiralari o‘zgarishini hisobga oladigan o‘zgartirishlar kiritildi. Bu o‘zgartirishlar xalqaro statistik standartlarga muvofiqlikni ta’minlash maqsadida xalqaro ekspertlarning tavsiyalari inobatga olingan holda joriy etildi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylari ko‘rsatkichlarining qiyoslanuvchanligini ta’minlash uchun real o‘sish sur’ati 2025-yilning tegishli davri uchun qayta ko‘rib chiqilgan ma’lumotlar asosida hisoblandi.

Bozor xizmatlari umumiy o‘sishiga eng katta hissani savdo xizmatlari (o‘sish **17,4** %, umumiy o‘sishdagi hissasi **4,0** f.b.), moliyaviy xizmatlar (**22,0** %, **3,4** f.b.), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**11,3** %, **2,1** f.b.), transport xizmatlari (**16,4** %, **2,8** f.b.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**21,4** %, **1,6** f.b.), ta’lim sohasidagi xizmatlar (**19,6** %, **0,7** f.b.), boshqa xizmatlar (**13,1** %, **0,7** f.b.), shuningdek, ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar (**15,3** %, **0,4** f.b.), me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (**24,2** %, **0,3** f.b.) va shaxsiy xizmatlar (**14,4** %, **0,3** f.b.) qo‘shdi.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**14,2** %), kompyuterlar va maishiy buyumlarni ta’mirlash xizmatlari (**11,1** %) hamda ijara xizmatlari (**9,5** %) bo‘yicha qo‘shimcha ijobiy hissa qayd etilib, ular birgalikda umumiy o‘sishni **0,4** % bandga oshirdi.


Mazkur press-relizda keltirilgan 2025–yilning yanvar–sentabr oylariga oid qayta ko‘rib chiqilgan taqqoslama ko‘rsatkichlar savdo xizmatlari hajmini hisoblashning yangilangan metodologiyasini o‘zida aks ettiradi. Shu sababli ushbu ko‘rsatkichlardan 2026–yilning yanvar–sentabr oylariga nisbatan yillik taqqoslashda foydalanish lozim.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlarining ulushi **23,5** %ni, yashash va ovqatlanish xizmatlarining ulushi **17,9** %ni, moliyaviy xizmatlarning ulushi **16,3** %ni, transport xizmatlarining ulushi **16,2** %ni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi **7,7** %ni hamda ta’lim sohasidagi xizmatlarning ulushi **3,5** %ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlari
2025–2026–yillar yanvar-sentabr

	Hajmi, mlrd so‘mda		O‘sish sur’ati, %da
	2025-yil	2026-yil	
Xizmatlar – jami	**814 960,4**	**1 003 197,6**	**116,7**
shundan:			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	61 722,8	77 606,2	121,4
moliyaviy xizmatlar	125 703,6	163 753,5	122,0
transport xizmatlari	136 974,5	162 833,9	116,4
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	68 478,3	85 440,9	116,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	149 450,1	179 704,5	111,3
savdo xizmatlari	190 055,6	235 284,4	117,4
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	20 114,9	23 936,0	115,3
ta’lim sohasidagi xizmatlar	28 139,1	34 763,0	119,6
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	14 563,4	17 612,3	114,2
ijara xizmatlari	9 960,2	11 631,5	109,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	10 389,0	12 117,0	111,1
shaxsiy xizmatlar	14 847,1	18 447,5	114,4
me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	10 737,2	14 492,7	124,2
boshqa xizmatlar	42 302,9	51 015,1	113,1

Asosiy turlar bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi
2026-yil yanvar-sentabr, mlrd so‘mda



4-rasm

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo‘yicha hajmi

Qayta ko‘rib chiqilgan taqqoslash bazasidan foydalangan holda, 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan **45 228,8** mlrd so‘mga o‘sib, **235 284,4** mlrd so‘mni tashkil etdi.


2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **30 254,4** mlrd so‘mga oshib, **179 704,5** mlrd so‘mni tashkil etdi. Yashash va ovqatlanish sohasidagi xizmatlarning asosiy qismi – (**96,1** %) oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar bilan ta’minlash xizmatiga tegishli bo‘ldi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2026-yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **38 049,9** mlrd so‘mga ortib, **163 753,5** mlrd so‘mni tashkil etdi. O‘sish sur’ati **122,0** %ga teng bo‘ldi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida yordamchi moliyaviy faoliyat, sug‘urta va pensiya ta’minoti xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **85,8** %ni tashkil qildi. Sug‘urta xizmatlarining solishtirma og‘irligi **6,9** %ni, yordamchi moliyaviy faoliyat xizmatlariniki esa **7,3** %ni tashkil etdi.

2026-yilning yanvar–sentabr oylarida transport xizmatlari hajmi **162 833,9** mlrd so‘mni tashkil etdi. Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **52,5** %ni, hajmi esa **85 440,9** mlrd so‘mni tashkil etdi. Transport xizmatlari hajmining o‘sishi yuk va yo‘lovchi tashish sohasidagi faollikning ortganini aks ettiradi.


Transport xizmatlari hajmining turlari bo‘yicha tarkibi,
%da 2026-yil yanvar-sentabr



5-rasm

2026-yilning ko‘rib chiqilayotgan davrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **77 606,2** mlrd so‘mga yetdi. Eng katta ulush kompyuter dasturlash xizmatlari hissasiga to‘g‘ri keldi (**48,4** %). Shuningdek, ko‘rib chiqilayotgan davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida telekommunikatsiya xizmatlari ulushi **27,5** %ni, axborot sohasidagi xizmatlar **15,8** %ni, noshirlik xizmatlari **6,1** %ni, boshqa xizmatlar esa **2,2** %ni tashkil etgani qayd etildi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining turlari bo‘yicha hajmi
2025-2026-yillar yanvar-sentabr, mlrd so‘mda



6-rasm

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida kompyuter dasturlash xizmatlarining yuqori ulushi ushbu yo‘nalishning raqamli xizmatlarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutishidan dalolat beradi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi **34 763,0** mlrd so‘mni tashkil etib, ularning tarkibida oliy ta’lim xizmatlari ulushi **40,2** % ulush bilan ustunlik qildi.

Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlarning umumiy hajmida (**23 936,0** mlrd so‘m) o‘ziga tegishli yoki ijaraga olingan ko‘chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo‘yicha xizmatlarning ulushi **92,1** %ni tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-sentabr oylarida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **17 612,3** mlrd so‘mni tashkil etdi. Bunda sog‘liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar ulushi **53,3** %ni, shifoxona muassasalari xizmatlari **32,3** %ni, shifokorlik amaliyoti va stomatologiya xizmatlari esa **14,4** %ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko‘rsatkichlariga izohlar

Press-relizda bozor xizmatlari hajmi joriy narxlarda keltirilgan. O‘sish sur’atlari tegishli narx va tarif indekslaridan foydalangan holda taqqoslanadigan narxlarda hisoblanadi. Shu munosabat bilan qiymat ifodasidagi o‘zgarishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning real hajmidagi o‘zgarishlar alohida talqin qilinishi lozim. Ming so‘mda ifodalangan jon boshiga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichlar ham joriy narxlarda keltirilgan bo‘lib, ularning o‘sish sur’atlari taqqoslanadigan narxlarning tegishli metodologiyasiga muvofiq talqin qilinishi lozim.

Ma’lumotlar norasmiy va kuzatilmaydigan iqtisodiyotni baholash uchun foydalaniladigan statistik kuzatuvlar natijalari inobatga olingan holda taqdim etilgan.

Ma’lumotlar dastlabki hisoblanib, keyingi nashrlarda ularga aniqliklar kiritilishi mumkin.

Xizmatlarning oylik hajmi quyidagi manbalar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), yuridik shaxslarning alohida bo‘linmalari — tijorat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlar (ro‘yxat bo‘yicha) bo‘yicha statistik hisobotlar;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini oylik telefon so‘rovlari, choraklik kuzatuvlar ma’lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari asosida baholash;

d) fermer xo‘jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistik hisobot shakllari bo‘yicha baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi — muayyan davrda iste’molchilarga (shu jumladan norezidentlarga) xizmat ko‘rsatuvchi barcha ishlab chiqaruvchilar, ya’ni ham xizmat ko‘rsatishga ixtisoslashganlar, ham xizmat ko‘rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydiganlar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmida xizmatlar uchun hisoblangan to‘lovlar QQS va aksizlarsiz, amaldagi bozor narxlarida hisobga olinadi.

Agar xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo‘lib, iqtisodiy jihatdan ahamiyatli narxlarda (ishlab chiqaruvchi xarajatlarini to‘liq yoki sezilarli darajada qoplaydigan) sotilsa, mahsulot bozorbop hisoblanadi. To‘lov naqd pul, bank kartalari va pul o‘tkazmalari, jumladan, elektron to‘lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Ulgurji va chakana savdo korxonalari uchun mahsulot hajmi qayta sotish uchun mo‘ljallangan tovarlarni sotishdan tushgan tushum va ularni sotib olish xarajatlari o‘rtasidagi farq hamda qayta sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar zaxirasidagi o‘zgarishlar yig‘indisi sifatida aniqlanadi (Eurostat, Handbook on prices and volume measures in national accounts, 2016).

Norezidentlarga ko‘rsatilgan xizmatlar (agar to‘lov so‘mda amalga oshirilmasa) O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tranzaksiya sanasida belgilangan so‘m kursi bo‘yicha shartnoma narxlarida qayta hisoblanadi.

Xizmatlarni faoliyat turlari bo‘yicha tasniflash O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi O‘zbekiston Respublikasi Mahsulotlar statistik tasniflagichi (MST)ning G–S seksiyalari qismida tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo‘yicha uslubiy nizom

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro‘yxati

Handbook on prices and volume measures in national accounts

Tayyorlash uchun mas’ul:
Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

Manzil: *100170, Toshkent, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 63.*
Elektron pochta: *info@stat.uz*
Tel.: 71-203-80-00 (1280, 1281)